


**BUILDERS OF THE FUTURE**journal homepage:  
<https://kelajakbunyodkori.uz/>**MENTALITY-SPECIFIC FEATURES IN UZBEK AND PERSIAN FAIRY TALES****Sarvinoz Yuldashova**

*Higher School of Iranian and Afghan Studies  
4th-year student, Persian-English group  
Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan*

**D. Yusupova**

*Senior Lecturer of the Higher School of Iranian and Afghan Studies at TSUOS  
Tashkent, Uzbekistan*

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** folklore, fairy tale, proverb, riddle, story, national values, comparative analysis, good and evil, evaluation.

**Received:** 25.03.26**Accepted:** 26.03.26**Published:** 27.03.26

**Abstract:** This article examines the features of mentality reflected in Uzbek and Persian fairy tales through a comparative analysis. In the course of the research, national values, moral and ethical views, family relationships, heroic images, and interpretations of good and evil in the folklore of both peoples are explored. The study also analyzes how historical memory, worldview, and cultural thinking of the people are expressed in fairy tales. Similarities and differences between Uzbek and Persian fairy tales are revealed through the prism of mentality, and their role in shaping national identity is scientifically explained.

**O‘ZBEK VA FORS ERTAKLARIDA MENTALITETGA XOS XUSUSIYATLAR****Sarvinoz Yo‘ldashova**

*“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi  
4-kurs fors ingliz guruhi talabasi  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Toshkent, O‘zbekiston*

**D. Yusupova**

*TDSHU, “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi katta o‘qituvchisi  
Toshkent, O‘zbekiston*

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit soʻzlar:** Xalq ogʻzaki ijodi, ertak, maqol, topishmoq, hikoya, milliy qadriyat, qiyosiy tahlil, ezgulik va yovuzlik, baho.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oʻzbek va fors ertaklarida aks etgan mentalitet xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida oʻrganiladi. Tadqiqot jarayonida har ikki xalq ogʻzaki ijodida milliy qadriyatlar, axloqiy-meʼyoriy qarashlar, oilaviy munosabatlar, qahramonlik timsollari hamda ezgulik va yovuzlik talqinlari yoritiladi. Shuningdek, ertaklarda xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va madaniy tafakkuri qanday ifodalangani tahlil qilinadi. Oʻzbek va fors ertaklaridagi oʻxshash hamda farqli jihatlar mentalitet prizmasi orqali ochib berilib, ularning milliy oʻzlikni shakllantirishdagi oʻrni ilmiy asosda izohlanadi.

---

## ОСОБЕННОСТИ МЕНТАЛИТЕТА В УЗБЕКСКИХ И ПЕРСИДСКИХ СКАЗКАХ

**Сарвиноз Йўлдашова**

*Студентка 4 курса, группа «персидский-английский»*

*Высшая школа иранистики и афганистики*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

**Д. Юсупова**

*Старший преподаватель*

*Высшей школы иранистики и афганистики ТГУВ*

*Ташкент, Узбекистан*

---

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** устное народное творчество, сказка, пословица, загадка, рассказ, национальные ценности, сравнительный анализ, добро и зло, оценка.

**Аннотация:** В данной статье на основе сравнительного анализа рассматриваются особенности менталитета, отражённые в узбекских и персидских сказках. В процессе исследования изучаются национальные ценности, морально-нравственные взгляды, семейные отношения, героические образы, а также интерпретации добра и зла в устном народном творчестве обоих народов. Также анализируется, как в сказках выражаются историческая память, мировоззрение и культурное мышление народа. Сходства и различия узбекских и персидских сказок раскрываются через призму менталитета, а их роль в формировании национальной идентичности объясняется с научной точки зрения.

---

**Kirish.** Har bir millatning asrlar davomida ota-bobolardan meros boʻlib kelgan xalq ogʻzaki ijodi mavjud. Bu ijodiy meros maqol, topishmoq, hikoya, ibratli voqea yoki ertak koʻrinishida namoyon boʻlishi mumkin. Ularning oʻziga xos jihati shundaki, ular muayyan shaxs tomonidan

yoziqlan bo'lsa-da, avloddan-avlodga yetib kelgan va mazmun hamda maqsadi o'zgarmagan holda saqlanib qolgan.

O'zbek xalq ertaklari, topishmoqlari, maqol va matallari hamda og'zaki teatr namunalarini to'plash va nashr etishda N.P.Ostroumovning faoliyati salmoqlidir. Xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va tadqiq qilish ishlari asosan, XX asrning 20-yillaridan boshlab jonlandi. Professor B.Sarimsoqovning fikricha, adabiyotdagi uch turni folklor asarlariga ham qo'llash mumkin, lekin bu uch adabiy tur doirasiga sig'maydigan, faqat folklorga xos maqol, topishmoq, turli xildagi aytimlar, olqish va qarg'ishlar alohida tur sifatida ajratib o'rganilmog'i lozim. Shuningdek, ertak atamasi M.Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida "etuk" tarzida qo'llanilgan. Xalqimiz orasida hozirgi paytda ham cho'pchak, utuk, matal, varsaki kabi so'zlar ertak ma'nosini anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida ertak so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy mazmundagi epik badiiy asar; cho'pchak.

Mazkur tadqiqotda o'zbek xalqining eng mashhur va sevimli ertaklaridan biri –"Zumrad va Qimmat" ertagi haqida so'z yuritiladi. Ushbu ertak avloddan-avlodga og'zaki tarzda yetib kelib, yoshligimizda kechqurun buvilarimiz, bobolarimiz, ota-onalarimiz tomonidan aytib berilgan holda bizni uyquga chorlagan, bolalik xotiralarimizning ajralmas qismiga aylangan. "Zumrad va Qimmat" ertagi nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham qadrlil bo'lib, unda xalqning axloqiy qarashlari, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, sabr-toqat va halollik kabi qadriyatlar ifodalangan. Shu bois, mazkur ertak o'zbek xalqining ma'naviy merosida alohida o'rin tutadi va milliy mentalitetni shakllantirishda muhim manba sifatida baholanadi.

XXI asrga kelib axborot texnologiyalari jadal rivojlanishi natijasida ko'plab madaniy meros namunalarining elektron shaklda ommalashuvi kuzatilmoqda. Shu jumladan, o'zbek xalqining mashhur "Zumrad va Qimmat" ertagi ham zamonaviy talqinlarda multfilm, audioyozuv va sahna asari ko'rinishida keng auditoriyaga taqdim etilmoqda. Ushbu ertak qo'g'irchoq teatrlarida, bolalar bayramlarida mohir aktyor va aktrisalar tomonidan sahnalashtirilib, yosh avlodning ma'naviy tarbiyasida muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Mazkur ertakning o'zbek xalq og'zaki ijodidagi mashhurligi Fors xalq og'zaki ijodida ham o'z aksini topgan. Fors adabiy an'analari u "سختکوش" ("Mehnatkash qiz va Dangasa qiz") nomi bilan ma'lum bo'lib, mazmunan "Zumrad va Qimmat" ertagiga yaqin turadi. Har ikkala ertakda ham bolalarga mehnatsevarlik, halollik, sabr-toqat kabi qadriyatlarni singdirish maqsadi ko'zda tutiladi. Biroq ertaklarning nomi, voqealar rivoji va ayrim syujet elementlari bir-biridan farq qiladi.

"Zumrad va Qimmat" hamda "Mehnatkash qiz va Dangasa qiz" ertaklari turli xalqlarda shakllangan bo'lsa-da, ularning asosiy g'oyasi – ezgulikni ulug'lash va yovuzlikni qoralash – umumiylik kasb etadi. Bu holat xalq ertaklarining milliy mentalitetni shakllantirishdagi o'rni va

ahamiyatini yanada yaqqol ko'rsatadi. Ushbu maqolada biz mazkur ikki xalq og'zaki ijodida mashhur bo'lgan ertakni qiyosiy tahlil qilamiz.

Ilk qadam sifatida ertaklarning nomlanishiga e'tibor qaratamiz. Fors xalq og'zaki ijodida "سختکوش دختر و تنبل دختر" ("Mehnatkash qiz va Dangasa qiz") nomi bilan mashhur bo'lgan ertak o'zbek tiliga tarjima qilinganda mazmuni darhol anglashiladi. Nomning o'zidanoq ertakning asosiy g'oyasi – mehnatsevarlik va dangasalik o'rtasidagi qarama-qarshilik – bolalarga ayon bo'ladi. Xuddi shuningdek, "Zumrad va Qimmat" nomini eshitganimizda ham ikki xil xarakterga ega qiz obrazi tasavvurimizda gavdalanadi: Zumrad – mehnatkash, mehribon, aqlli qiz; Qimmat esa – dangasa, qo'pol va bemehr qiz sifatida ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Syujet jihatidan ham o'zbek va fors ertaklari o'rtasida sezilarli o'xshashliklar mavjud. Masalan, kampir va chol obrazlari, ularning bittadan qizlari bo'lishi, uzoq qishloqda yashashlari, kampirning qizi dangasa, cholning qizi esa mehnatsevar bo'lishi, kampirning cholning qiziga kun bermasligi, uni tinmay xo'rlashi va bemehrligi, ammo cholning qizining sabr-toqat bilan nolimasligi kabi motivlar har ikki ertakda ham uchraydi. Bu jihatlar ertaklarning asosiy g'oyaviy yo'nalishini bir-biriga yaqinlashtiradi.

Shunday qilib, "Zumrad va Qimmat" va "Mehnatkash qiz va Dangasa qiz" ertaklari turli xalqlarda shakllangan bo'lsa-da, ularning syujet va g'oyaviy asoslari umumiylik kasb etadi. Bu esa xalq ertaklarining milliy qadriyatlarni ifodalash va avlodlar ongida mustahkamlashdagi o'rni naqadar muhim ekanini ko'rsatadi.

خانه ی در دهکده دور افتاده قرار داشت که مردی همراه همسرش در اون زندگی می کرد. هر دوی اونها یک دختر از ازدواج قبلی شده داشتند. زن دخترش را خیلی دوست داشت، و اون لباسهای نو می داد تا به پوشی و هیچ وقت از اون کار نمی کشید. با اینکه دخترش خیلی تنبل شده بود. تمام روزهای یک جا می نشستند هیچ کاری جز تحسین خودش نداشت اما از اون ترف زن با دختر شوهرش رفتار خیلی بعدی داشت

Uzoqda joylashgan qishloqdagi bir uyda bir kishi ayoli bilan birga yashardi. Ularning har ikkisini oldingi turmushidan bittadan qizi bor edi. Ayol qizini juda yaxshi ko'rar va unga kiyishi uchun yangi ko'ylaklar berardi va hech qachon bu liboslarda ish qilmas edi. Shuningdek qizi juda dangasa bo'lib qolgan edi. Butun kun bir joyda o'tirardi va uning o'zidan boshqa hech bir ishi yo'q edi ammo boshqa tarafdin ayol erining qizi bilan juda yomon muomalada bo'lardi.

Bundan tashqari, fors xalq og'zaki ijodida uchraydigan "Mehnatkash qiz va Dangasa qiz" ertagida o'zbek xalqining "Zumrad va Qimmat" ertagida mavjud bo'lmagan ayrim syujet elementlari ham uchraydi. Masalan, ushbu ertakning kulminatsion nuqtasi qizning otasi kasal bo'lib qolishi va otasi bilan qiz o'rtasida kechadigan suhbatdan boshlanadi. Bu epizod ertakning dramatik kuchini oshiradi, qahramonning ichki dunyosi va ota-bola munosabatlari orqali voqealarning rivojiga yangi mazmuniy qatlam qo'shadi.

Shu jihatdan, fors ertagida kiritilgan qo‘shimcha syujet chizig‘i ertakning tarbiyaviy ahamiyatini yanada kengaytiradi. Chunki unda nafaqat mehnatsevarlik va dangasalik o‘rtasidagi qarama-qarshilik, balki ota mehrining qadri, farzandning sabr-toqati va mas‘uliyati ham yoritiladi. Bu esa ertakni yanada murakkab va ko‘p qirrali badiiy asar sifatida talqin qilish imkonini beradi.

دختر عزیزم -گذشته زمان مرد ضعیف و بیمار شد  
خیلی متاسفم چیزی ندارم بهت بدهم  
دوست داشتی یا همیشه از من مراقبت  
کردی. اما حال نوبت من است. من باید از تو مراقبت کنم. پدر جون. روزهای سخت می گذاریم. اما روزهای سختی من  
به زودی تمام می شود. زن داشت پنهانی به همه حرفهای اون را گوش می داد

Vaqt o‘tib ota zaiflashib kasal bo‘ldi.

Chol: Azizam, qizalog‘im senga berish uchun hech narsam yo‘q,  
juda afsusdaman.

Cholning qizi: Yo‘q ota, hijolat bo‘lmang, siz har doim meni yaxshi ko‘rdingiz va har doim menga g‘amxo‘rlik qildingiz. Ammo hozir mening navbatim. Men sizga g‘amxo‘rlik qilishim kerak. Otajon qiyin kunlarni o‘tkazyapman. Ammo mening qiyin kunlarim tez orada tugaydi. Ayol esa ularni barcha gaplarini pinhona eshitib turardi.

Mana ushbu qismi “Zumrad va Qimmat” ertagida uchramaydi.

Mehnatkash qiz oilasini boqish uchun yo‘lga otlanadi, bunga o‘gay onasi ham majbur qiladi, ammo yo‘lda yeyish uchun hech narsa bermaydi, ammo qiz bunga e‘tibor ham bermaydi. Shu bilan qiz yo‘lga tushadi va yo‘ldagi sarguzasht, voqealar, qiz duch keladigan qiyinchiliklar boshlanadi.

Ertaklar xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, to‘qima voqealarni tasvirlaydi va ba‘zan fantastik xarakterga ega bo‘ladi. Ertak barcha xalqlar og‘zaki ijodida eng qadimgi va eng keng tarqalgan bir janr bo‘lib, u xalq hayoti, urf-odati, intilishi, kurashini, orzu va armonlarini aks ettiradi.

O‘zbek adabiyotining “Qimmat va Zumrad” ertagida esa cholning o‘zi qizini o‘rmonga olib borib qo‘yib, uni bir joyda o‘tirishi va qo‘rqmasligi uchun, va daraxtga bolta ilib ketardi, go‘yoki u otasi shu yerda ishlayotgandek tuyilishi uchun. Ammo, bu ertakda qiz uzoq yo‘l bosadi ammo yo‘lda na ishchini va na yordamga muhtoj bo‘lganlarni uchratadi va shu paytda u otasining so‘zlarini yodga oladi va taslim bo‘lmasdan yo‘lini davom ettiradi. Birozdan so‘ng yo‘lida qurigan nok va uzum daraxti, ifloslangan quduq, har yeri shikast yegan tandir va yunglari o‘sib kir bo‘lib ketgan it bilan suhbatda bo‘ladi, va ular yordam istaganlari uchun ularga yordam beradi. U hech qachon yordamini ayamaydi va kiyimlarini kir bo‘lishidan ham qo‘rqmaydi. Ularda chin ko‘ngildan yordam beradi. Kech tushib qolgandan so‘ng, uning yo‘lidan bir saroy chiqadi. Va u saroyga kiradi. Va bu saroy 7 pari saroyi bo‘ladi. Lekin, “Zumrad va Qimmat” ertagida, u bir yerda to‘nka ustida o‘tirardi va uning yoniga bir kampir kelib uni o‘z uyiga olib ketardi.

Mazkur ertak bolalar uchun yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asar sifatida baholanadi. Unda mehnatsevarlik, odob-axloq va topshirilgan vazifani mas'uliyat bilan bajarish zarurligi singari qadriyatlar bolalarga singdiriladi. Shu bilan birga, ertak dangasalik, mas'uliyatsizlik va o'z-o'zidan ish qilishga urinish kabi illatlardan qochish lozimligini ham o'rgatadi. Ertakda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik milliy tafakkurdagi adolat tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Ezgulikning mukofotlanishi va yovuzlikning jazolanishi xalq ongida adolatparvarlik, axloqiy muvozanat va ijtimoiy tartib g'oyalarining ustuvorligini ko'rsatadi. Shuningdek, ona obrazi, oila muhiti va ijtimoiy munosabatlar orqali patriarxal tuzum elementlari hamda tarbiyaviy maqsadlar ifodalanadi.

Umuman olganda, o'zbek va fors ertaklari, jumladan "Zumrad va Qimmat", milliy mentalitetni shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazish hamda xalqning tarixiy xotirasi va madaniy tafakkurini saqlashda muhim estetik va ijtimoiy vazifani bajaradi. Shu bois, mazkur ertaklar nafaqat badiiy meros sifatida, balki xalqning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida ham beqiyos o'rin tutadi. Mazkur ertak bolalar uchun juda ibratli asar hisoblanadi. Unda mehnatsevarlik, odob-axloq va faqatgina topshirilgan vazifani bajarish zarurligi singari qadriyatlar bolalarga singdiriladi. Shu bilan birga, ertak dangasalikdan, mas'uliyatsizlikdan va aytilmagan ishlarni bajarishga urinishdan qochish lozimligini ham o'rgatadi.

Ertakda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik milliy tafakkurdagi adolat tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ezgulikning mukofotlanishi va yovuzlikning jazolanishi xalq ongida adolatparvarlik, axloqiy muvozanat va ijtimoiy tartib g'oyalarining ustuvorligini ko'rsatadi. Shuningdek, ona obrazi, oila muhiti va ijtimoiy munosabatlar orqali patriarxal tuzum elementlari hamda tarbiyaviy maqsadlar ifodalanadi. Umuman olganda, o'zbek va fors ertaklari, jumladan "Zumrad va Qimmat", milliy mentalitetni shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazish hamda xalqning tarixiy xotirasi va madaniy tafakkurini saqlashda muhim estetik va ijtimoiy vazifani bajaradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sarimsoqov B. O'zbek folklorining janrlar sostavi. // O'zbek folklori ocherklari. 3 tomlik, 1 -tom. Toshkent: "Fan", 1988. – B.64-85.
2. X. Xomidiy, Sh. Abdullaeva, S. Ibrohimova. Adabiyatshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: Uqituvchi, 1970. – B. 256.
3. Qoshgariy Maхmud. Devonu lug'otit turk, birinchi tom. – Toshkent: UZFA nashriёti, 1960. – S. 98.
4. U'TIL. 5 Jild. – Toshkent: U'zbekiston milliy энциклопедияси ДИН, 2006. – B. 51